

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**MUZEYLARDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI  
TO'G'RISIDA**

Mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash, shuningdek, muzeylarda o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinci Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid zamonaviy yangi ekspozitsiyalarini yaratish, muzey to'plamlaridagi boy tarixiy va madaniy merosimizni keng targ'ib qilish maqsadida:

1. Quyidagilar:

2022-2023-yillarda davlat muzeylarida tashkil etiladigan qo'shimcha xizmatlarning manzilli rejasi **1-ilovaga** muvofiq;

O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinci Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid 2022 — 2024-yillarda yangi tashkil etiladigan ekspozitsiyalarining manzilli rejasi **2-ilovaga** muvofiq;

2022 — 2024-yillarda davlat muzeylarida ixtisoslashtirilgan restavratsiya laboratoriyalarini tashkil qilishning manzilli rejasi **3-ilovaga** muvofiq;

Noyob muzey ashyolari va kolleksiyalarining replikatsiyalarini tayyorlash hamda ularni realizatsiya qilish bo'yicha 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar **4-ilovaga** muvofiq;

Muzeylar sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish rejasi **5-ilovaga** muvofiq;

2022-2023-yillarda muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Muzeylarda xizmatlar sohasini kengaytirish bo'yicha shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2022-yil 1-iyuldan boshlab:

davlat muzeylariga har kuni soat 22:00 gacha tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish huquqi beriladi, shuningdek, zaruratga ko'ra, davlat muzeylari qonunchilik hujjatlarda belgilangan tartibda tungi ish vaqt va muddatlarini belgilashi mumkin;

pulli xizmatlar ko'rsatishda ishtirok etgan muzey xodimlariga qo'shimcha to'lovlar to'lanadi va ular moddiy rag'batlantiriladi, qo'shimcha to'lovlar to'lash va moddiy rag'batlantirish tartibi muzeylar tomonidan ularning yuqori turuvchi organi bilan kelishgan holda belgilanadi;

davlat muzeylariga ularda tashkil etiladigan xizmatlar uchun Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi (keyingi o'rnlarda — Madaniy meros agentligi) bilan kelishgan hamda bozor konyunkturasini hisobga olgan holda, budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida qo'shimcha xodimlarni jalb etishga ruxsat beriladi.

Davlat muzeylari tomonidan xizmatlarni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar mahalliy budgetning qo'shimcha manbalari, muzeylarning budgetdan tashqari mablag'lari, Madaniy meros jamg'armasi mablag'lari, tijorat banklarining kreditlari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

3. Toshkent shahar hokimligi tomonidan Turkiya Respublikasining malakali kompaniyasini jalb etgan holda Toshkent shahri shahar budjeti mablag'lari va uning qo'shimcha manbalari hisobidan 2022-yil 1-noyabrga qadar jahonning mashhur muzeylaridagi eng ilg'or tajribalarni qo'llagan holda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston davlat tabiat muzeyi binolarini zamonaviy rekonstruksiya qilish, jihozlash, raqamlashtirish va yangi ekspozitsiyalarini yaratish hamda ularda xizmatlar ko'rsatish sohasini namuna sifatida tayyorlayotgani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Toshkent shahar hokimligi (J.A. Artikxodjayev) Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi (B.A. Abduhalimov) bilan birgalikda ushbu bandda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida

amalga oshirilishini ta'minlasin, bunda, zamonaviy yangi ekspozitsiyalarni chuqur ilmiy-tarixiy asoslanishiga e'tibor qaratsin.

4. Muzeylar faoliyatini takomillashtirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika ishchi guruhi (keyingi o'rnlarda — Respublika ishchi guruhi) tarkibi **7-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Quyidagilar Respublika ishchi guruhining (A.A. Abduxakimov) asosiy vazifalari etib belgilansin:

muzeylear faoliyatini takomillashtirish va ular faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu borada belgilangan vazifalarning davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishini muvofiqlashtirish;

muzeylear faoliyati sohasida ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, ular faoliyatini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, sohada yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ularning malakasini tizimli ravishda oshirib borish;

muzeylarning zamonaviy yangi konsepsiyalari, tashrif buyuruvchilar, xususan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, muzey ashyolarini ishonchli saqlash, turistlarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, sohaga xorijiy ilg'or tajribalarni samarali qo'llash, muzeylear faoliyatini raqamlashtirish;

zamonaviy ilg'or arxitektura-rejalashtirish, interyer, dizayn va landshaft yechimlariga e'tibor qaratgan holda har bir muzey binosining eskiz loyihasini muzey faoliyatining yo'nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda tasdiqlash;

foydalanilmayotgan, turistlar uchun ochiq bo'lмаган va turistik xizmatlar ko'rsatilmayotgan mos madaniy meros obyektlarini muzeylear, ko'rgazmalar, art-rezidensiyalar, boshqa madaniyat va turizm obyektlariga aylantirish choralarini ko'rish.

5. 2023 — 2026-yillarda muzeyleashtiriladigan arxeologiya yodgorliklarining manzilli rejasি **8-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Madaniy meros agentligi Fanlar akademiyasi (B.A. Abduhalimov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda arxeologiya sohasidagi ekspert va mutaxassislarni jalb qilgan holda, ushbu qarorga **8-ilovaga** muvofiq arxeologiya yodgorliklarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, konservatsiyalash va ularda ochiq osmon ostida muzey tashkil etish hamda uni turizm obyektiga aylantirish choralarini ko'rsin.

Belgilansinki, bu boradagi xarajatlar madaniy meros sohasiga ajratiladigan Davlat budgeti va tegishli mahalliy budget mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

6. Belgilab qo'yilsinki, davlat tashkilotlari va muassasalari o'zлari ishlab chiqarayotgan yangi turdagи muhim mahsulotlardan namunalarni davlat muzeylariga bepul beradi.

Madaniy meros agentligi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (D.N. Sattarov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A.J. Ortikov) davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan o'zлari ishlab chiqarayotgan yangi turdagи muhim mahsulotlar namunalarining tegishli davlat muzeylariga bepul berilishini muvofiqlashtirsin.

7. Aholidagi madaniy boyliklarni davlat muzeylari tomonidan qabul qilib olishni rag'batlantirish va ommalashtirishga qaratilgan "Milliy merosga mening hissam!" umumxalq aksiyasi 2022-yil 1-iyuldan boshlab tashkil etilsin va doimiy ravishda o'tkazib borilsin.

8. Belgilansinki, "Milliy merosga mening hissam!" umumxalq aksiyasi doirasida:

davlat muzeylariga madaniy boyliklarni, shu jumladan mustaqillik yillarda yaratilgan, yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan tasviriy va amaliy san'at asarlarini xarid qilish uchun 2022-yil 1-iyuldan boshlab har yili Madaniy meros jamg'armasiga Davlat budgetidan madaniy meros va muzeylar sohasiga ajratilgan mablag'lar hisobidan qo'shimcha 3 mlrd so'mdan hamda hududlardagi tegishli davlat muzeylariga Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgeti, viloyatlar viloyat budgetlari va Toshkent shahri shahar budgetidan 500 million so'mdan mablag' ajratib boriladi, amaliy talabni inobatga olingan holda ushbu mablag' miqdori oshirilishi mumkin;

ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng ko'lamda targ'ibot-tashviqot ishlari hamda joylarda ekspeditsiyalar tashkil etiladi;

madaniy boyliklarni aniqlash va davlat muzeylariga topshirishda faol ishtirok etgan aholi vakillarining namunali faoliyati keng targ‘ib etiladi hamda ular qo‘llab-quvvatlanadi;

har yili davlat muzeylariga aholidan xarid qilib olingen madaniy boyliklar ko‘rgazmasi tashkil etiladi hamda ular haqidagi ma’lumotlar Madaniy meros agentligi va tegishli davlat muzeyining rasmiy veb-saytiga majburiy tartibda joylashtirib boriladi.

9. Madaniy meros agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

har yili “Milliy merosga mening hissam!” umumxalq aksiyasini yil davomida yuqori saviyada o‘tkazish va unda faol ishtirok etgan shaxslarni munosib rag‘batlantirish;

2022-yil yakuniga qadar aholidan madaniy boyliklarni qabul qilib olish (xarid qilish) jarayonini raqamlashtirish chora-tadbirlarini ko‘rsin.

10. Turizm va madaniy meros vazirligi (B.Z. Shaxriyorov), Xalq ta’limi vazirligi (B.O. Saidov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (A.X. Toshkulov), vazirliklar, idoralar va xo‘jalik birlashmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ta’lim muassasalarining o‘quvchi va talabalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillari, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar va boshqa fuqarolarning muzeylar va mamlakatimizning tarixiy manzilgohlariga tashriflarini nazarda tutuvchi “Moziyga sayohat” dasturini tashkil etsin.

11. Belgilansinki, “Moziyga sayohat” dasturi doirasida:

turizm infratuzilma subyektlariga (joylashtirish vositalariga) chegirma taqdim qilish va aksiyalar o‘tkazish tavsiya etiladi;

davlat oliy ta’lim muassasalari talabalarining joylashtirish vositalarida turish xarajatlarining 50 foizgacha miqdori tegishli davlat oliy ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan, ta’lim muassasalari o‘quvchilarining, nogironligi bo‘lgan shaxslarning joylashtirish vositalarida turish xarajatlarining 50 foizgacha miqdori mahalliy budgetning qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanishi mumkin;

“Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolar va nogironligi bo‘lgan shaxslar davlat muzeylariga bepul kiritiladi;

“Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarning temir yo‘l chiptalari hamda joylashtirish vositalarida turish xarajatlari to‘liq hajmda tegishlicha “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” jamg‘armalari hisobidan qoplanadi;

davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan har yili kamida bir marta budjetdan tashqari mablag‘lar, kasaba uyushmalari mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalari hisobidan o‘z xodimlari va ularning oila a’zolari uchun muzeylarga kirish chiptalarini xarid qilish amaliyoti joriy etiladi.

12. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda 2022-yil uchun, shuningdek 2023-yildan har yili dekabr oyiga qadar “Moziyga sayohat” dasturi doirasida tashriflarni tashkil etishning maqsadli ko‘rsatkichlarini tasdiqlasin.

Bunda, moliyalashtirish miqdori va manbalari belgilangan holda, jumladan muzeylarga tashrifi tashkil etiladigan:

hududlar kesimida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolar, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillari va nogironligi bo‘lgan shaxslar soni;

umumiyo‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi va talabalari soni;

vazirlik va idoralar, yirik tarmoq va sohalar kesimida davlat tashkilotlarining xodimlari soni nazarda tutiladi.

13. Muzeylar faoliyatini keng targ‘ib qilish maqsadida shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

davlat muzeylarida o‘tkaziladigan ko‘rgazmalar va madaniy-ma’rifiy tadbirlarning har yilgi kalender rejasini Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan tasdiqlash amaliyoti joriy etiladi, mazkur kalender reja Turizm va madaniy meros vazirligi, Madaniy meros agentligi va davlat muzeylarining rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi hamda turizm faoliyati subyektlariga yetkaziladi;

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanali Madaniy meros agentligining bosh axborot hamkori etib belgilanadi. Bunda, Madaniy meros agentligi va “O‘zbekiston tarixi” telekanali har yarim yillik uchun madaniy meros va muzeylar sohasini keng targ‘ib qilish bo‘yicha media-rejani ishlab chiqib, amalga oshiradi;

Madaniy meros agentligi tomonidan namoyish etishga tayyor holda taqdim etiladigan materiallarni “O‘zbekiston tarixi” telekanalida tomoshabinlar uchun qulay bo‘lgan vaqtarda bepul efirga uzatish yo‘lga qo‘yiladi;

Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi “Milliy PR-markazi” DUK tomonidan har yili kamida 100 ta yuksak badiiy saviyadagi Internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo‘ljallangan audiovizual targ‘ibot materiallari tayyorlanib, keng ommalashtirib boriladi. Bu boradagi xarajatlar mamlakatning turizm salohiyatini targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar uchun ajratilgan Davlat budgeti mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi;

moddiy madaniy meros obyektining ko‘chmas mulki hisoblanmagan davlat muzeylari hududlaridagi bo‘s sh yer maydonlariga belgilangan tartibda tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari) o‘rnataladi, ushbu tadbirlar Madaniy meros jamg‘armasi mablag‘lari, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Madaniy meros agentligi O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A.J. Xadjayev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ushbu bandda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishiga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rsin.

14. Muzeylar faoliyati sohasida ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2023-yildan boshlab:

har ikki yilda bir marta may oyining ikkinchi o‘n kunligida “Muzeyshunoslik va arxeologiya tadqiqotlari: dolzarb muammolar va zamonaviy yechimlar” xalqaro forumi hamda uning doirasida ilmiy-amaliy konferensiya, “Buyuk ipak yo‘li” tadqiqotlari” ko‘p jiddli katalog taqdimoti, ko‘rik-tanlov, ko‘rgazma-savdolar, teatrlashtirilgan konsert-tomosha dasturlari o‘tkaziladi;

har yili muzeylarga ajratiladigan Davlat budgeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan muzeylar sohasida faoliyat olib boruvchi mutaxassislarning kamida 10 nafarini chet elga malaka oshirish va tajriba almashish uchun yuborish majburiy yo‘lga qo‘yiladi;

har yili kamida 2 ta madaniy meros sohasidagi tashkilot, shu jumladan muzey hamda 100 nafar mutaxassisiga Madaniy meros jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Xalqaro muzeylar kengashiga (ICOM), Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish xalqaro kengashiga (IKOMOS) a’zolik badalini to‘lab berish amaliyoti joriy etiladi.

Madaniy meros agentligi Innovatsion rivojlanish vazirligi (I.Y. Abdurahmonov), Fanlar akademiyasi (B.A. Abduhalimov) bilan birgalikda ushbu bandda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishiga qaratilgan choralarini ko‘rsin.

15. Bosh prokuratura (N.T. Yo‘ldoshev) Madaniy meros agentligi, Vazirlar Mahkamasining Madaniy merosni himoya qilish inspeksiysi (Sh.Sh. Xasanov), Fanlar akademiyasi (B.A. Abduhalimov) bilan birgalikda:

ikki oy muddatda har bir muzeydagagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari hamda boshqa fondlardagi madaniy boyliklarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish manzilli rejasini tasdiqlasin;

ushbu manzilli rejaga muvofiq mulkchilik shakli va idoraviy bo‘ysunuvidan qat‘i nazar barcha muzeylardagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari hamda boshqa fondlardagi madaniy boyliklarni malakali mutaxassislardan iborat tarkibda ekspertlar komissiyalarini tuzgan holda to‘liq xatlovdan o‘tkazsin;

muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari hamda boshqa madaniy boyliklarni ishonchli muhofaza qilish choralarini kuchaytirsin.

16. Madaniy meros agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh.H. Shermatov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2023-yil 1-aprelga qadar:

davlat muzeylaridagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini elektron identifikatsiya qilish hamda Milliy muzey fondi davlat elektron katalogini to‘liq shakllantirish va samarali yuritish choralarini ko‘rsin;

Milliy muzey fondi davlat elektron katalogida noyob muzey ashyolarining yuqori sifatdagi fotosuratlari va 3D ko‘rinishlarini joylashtirib, ularni monetizatsiya qilish tizimini yo‘lga qo‘ysin;

Milliy muzey fondi davlat elektron katalogining madaniy boyliklarning xalqaro qidiruv tizimlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va elektron xizmatlar ma’lumot bazalari bilan integratsiya qilinishini ta‘minlasin.

17. Madaniy meros agentligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘srimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirlitsin.

18. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Madaniy meros agentligi direktori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Bosh vazir o‘rinbosari A.A. Abdusakimov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o‘rinbosari A.A. Jo‘rboev zimmasiga yuklansin.

### O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,  
2022-yil 27-may,  
PQ-261-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son qaroriga  
1-ILOVA

### 2022-2023-yillarda davlat muzeylarida tashkil etiladigan qo‘srimcha xizmatlarning MANZILLI REJASI

Davlat muzeylarida qo‘srimcha tashkil etiladigan xizmatlarning turlari, ularning boshlanish muddatlari va eng kam miqdorlari						
T/r	Muzey nomi	“Muzeyda tun”, “Open Air Fest” kabi ko‘ngilochar dasturlar, konsert, tomoshalar	Usta-hunarmandlarning mahorat darslari	Sovg‘alar va suvenir do‘konlari, hunarmandlar ustaxonasi va savdo shoxobchalari	Onlayn do‘konlar	Rassomlar, artistlar va folklor jamoalari, hunarmandlar uchun maxsus hududlar
1.	“Buxoro” davlat muzey-qo‘riqxonasi	Har oy (4 ta)	Har oy (5 ta)	2022-yil iyul (10 ta)	2023-yil mart	2022-yil iyul (1)
2.	“Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi	Har oy (4 ta)	Har oy (5 ta)	2022-yil iyul (10 ta)	2023-yil mart	2022-yil iyul (1)
3.	“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi	Har oy (4 ta)	Har oy (5 ta)	2022-yil sentyabr (10 ta)	2023-yil mart	2022-yil iyul (1)
4.	“Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasi	Har oy	Har oy (5 ta)	2022-yil iyul (3 ta)	2023-yil mart	2022-yil dekabr (1)

5.	“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi	Har oy	Har oy (5 ta)	2022-yil iyul (3 ta)	2023-yil mart	2022-yil avgust	2023-yil (av)
6.	“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi	Har oy	Har oy (5 ta)	2022-yil noyabr (3 ta)	2023-yil mart	2022-yil sentyabr	2023-yil (av)
7.	O‘zbekiston davlat san’at muzeyi	Har chorak	Har chorak	2022-yil iyul	2023-yil mart	2022-yil sentyabr	2023-yil (av)
8.	O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi	Har chorak	Har chorak	2022-yil iyul	2023-yil mart	2023-yil may	2023-yil (av)
9.	Temuriylar tarixi davlat muzeyi	Har chorak	Har chorak	2022-yil avgust	2023-yil mart	2022-yil sentyabr	2023-yil (av)
10.	O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi	Har chorak (2 ta)	Har chorak (5 ta)	2022-yil iyul	2023-yil mart	2022-yil sentyabr	2023-yil (av)
11.	O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi	Har chorak	Har chorak	2023-yil aprel	2023-yil mart	2022-yil sentyabr	2023-yil (av)
12.	Olimpiya va paralimpiya shon-shuhrati muzeyi	Har chorak		2023-yil yanvar	2023-yil mart		2023-yil (av)
13.	Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzeyi	Har chorak	Har chorak	2022-yil sentyabr	2023-yil mart	2023-yil dekabr	2023-yil (av)
14.	O‘zbekiston zamonaviy san’ati muzeyi	Har chorak	Har chorak	2023-yil aprel	2023-yil mart	2023-yil aprel	2023-yil (de)
15.	I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyi	Har chorak	Har chorak	2022-yil avgust	2023-yil mart	2022-yil sentyabr	2023-yil (av)
16.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi	Har chorak	Har chorak	2022-yil sentyabr	2023-yil mart	2023-yil may	2023-yil (av)
17.	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi	Har chorak	Har chorak	2023-yil may	2023-yil mart	2023-yil dekabr	2023-yil (av)
18.	Andijon viloyat tarixi va	Har chorak	Har chorak	2022-yil avgust	2023-yil mart	2022-yil iyul	2023-yil (av)

	madaniyati davlat muzeyi						
19.	Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	Har chorak	Har chorak	2023-yil mart	2023-yil mart	2023-yil may	2021
20.	Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	Har chorak	Har chorak	2023-yil aprel	2023-yil mart	2022-yil iyul	2021
21.	Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	Har chorak	Har chorak	2022-yil avgust	2023-yil mart	2022-yil dekabr	2021
22.	Navoiy viloyat tarixi va madaniya <sup>oti</sup> davlat muzeyi	Har chorak	Har chorak	2022-yil sentyabr	2023-yil mart	2022-yil dekabr	2021
23.	Termiz Arxeologiya muzeyi	Har chorak	Har chorak	2022-yil avgust	2023-yil mart	2023-yil may	2021
24.	Sirdaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	Har chorak	Har chorak	2023-yil sentyabr	2023-yil mart	2023-yil iyul	2021
25.	Toshkent viloyati Angren shahar tarixi muzeyi	Har chorak	Har chorak	2023-yil avgust	2023-yil mart	2023-yil dekabr	2021
26.	Toshkent viloyati Chirchiq shahar tarixi muzeyi	Har chorak	Har chorak	2023-yil dekabr	2023-yil noyabr	2023-yil sentyabr	2021
27.	Farg'ona viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	Har chorak	Har chorak	2022-yil oktyabr	2023-yil mart	2022-yil dekabr	2021

Izoh: davlat muzeylarida ushbu manzilli rejada ko'rsatilmagan boshqa xizmatlarni qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda tashkil etishga ruxsat beriladi. Davlat muzeylari 2022-2023-yillar va kelgusi yillarda ushbu manzilli rejada belgilangan ko'rsatkichlardan kam bo'limgan miqdorda qo'shimcha xizmatlarni tashkil etib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son qaroriga  
2-ILOVA

### O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinci Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid 2022 — 2024-yillarda yangi tashkil etiladigan ekspozitsiyalarining

#### MANZILLI REJASI

*Oldingi tahrirga qarang.*

T/r	Muzey nomi	Ekspozitsiya nomi va unda alohida e'tibor beriladigan jihatlar	Muddati	Mas'ullar
-----	------------	--	---------	-----------

1.	O'zbekiston tarixi davlat muzeyi	<p><b>O'zbek xalqi tarixining asosiy bosqichlari</b>            (eng qadimgi davrdan bugungacha)</p> <p><b>Kishilik tarixidagi Birinchi Renessans</b></p> <p>Aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojidagi tarixiy yuksalishda yurtimiz olimlarining xizmatlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Muhammad al-Xorazmiy;</li> <li>Ahmad Farg'oniy;</li> <li>Imom al-Buxoriy;</li> <li>Muhammad at-Termiziyy;</li> <li>Abu Nasr Farobiyy;</li> <li>Abu Bakr Xorazmiy;</li> <li>Abu Abdulla Xorazmiy;</li> <li>Abu Rayhon Beruniy;</li> <li>Ibn Sino;</li> <li>Yusuf Xos Hojib;</li> <li>Mahmud Qoshg'ariy;</li> <li>Ahmad Yassaviy;</li> <li>Ismoil Jurjoniy;</li> <li>Mahmud az-Zamaxshariy;</li> <li>Mahmud Chag'miniy;</li> <li>Burhoniddin al-Marg'inoniy;</li> <li>Najmuddin Kubro.</li> </ul> <p><b>Kishilik tarixidagi Ikkinci Renessans</b></p> <p>Amir Temur va temuriylar davri;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Bahouddin Naqshband;</li> <li>Sa'diddin Taftazoniy;</li> <li>Mir Sayyid Jurjoniy;</li> <li>Xoja Muhammad Porso;</li> <li>Mirzo Ulug'bek;</li> <li>Qozizoda Rumiy;</li> <li>Nizomiddin Shomiy;</li> <li>Sakkokiy;</li> <li>G'iyo'siddin al-Koshiy;</li> <li>Yoqub Charxiy;</li> <li>Sharafiddin Ali Yazdiy;</li> <li>Hofizi Abru;</li> <li>Lutfiy;</li> <li>Ali Qushchi;</li> <li>Xoja Ahror;</li> <li>Abdurazzoq Samarqandiy;</li> <li>Abdurahmon Jomiy;</li> <li>Mirxon;</li> <li>Davlatshoh Samarqandiy;</li> <li>Alisher Navoiy;</li> <li>Kamoliddin Behzod;</li> <li>Xondamir;</li> <li>Zahiriddin Muhammad Bobur.</li> </ul>	2022-yil noyabr	Toshkent shahar hokimligi, Fanlar akademiyasi, Madaniy meros agentligi, Badiiy akademiya
		<p><b>Kishilik tarixidagi Birinchi Renessans</b></p> <p>Aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojidagi tarixiy yuksalishda yurtimiz olimlarining xizmatlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Muhammad al-Xorazmiy;</li> <li>Ahmad Farg'oniy;</li> <li>Imom al-Buxoriy;</li> <li>Muhammad at-Termiziyy;</li> <li>Abu Nasr Farobiyy;</li> <li>Abu Bakr Xorazmiy;</li> <li>Abu Abdulla Xorazmiy;</li> <li>Abu Rayhon Beruniy;</li> <li>Ibn Sino;</li> <li>Yusuf Xos Hojib;</li> <li>Mahmud Qoshg'ariy;</li> <li>Ahmad Yassaviy;</li> <li>Ismoil Jurjoniy;</li> <li>Mahmud az-Zamaxshariy;</li> <li>Mahmud Chag'miniy;</li> <li>Burhoniddin al-Marg'inoniy;</li> <li>Najmuddin Kubro.</li> </ul> <p><b>Kishilik tarixidagi Ikkinci Renessans</b></p> <p>Amir Temur va temuriylar davri;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Bahouddin Naqshband;</li> <li>Sa'diddin Taftazoniy;</li> <li>Mir Sayyid Jurjoniy;</li> <li>Xoja Muhammad Porso;</li> <li>Mirzo Ulug'bek;</li> <li>Qozizoda Rumiy;</li> <li>Nizomiddin Shomiy;</li> <li>Sakkokiy;</li> <li>G'iyo'siddin al-Koshiy;</li> <li>Yoqub Charxiy;</li> <li>Sharafiddin Ali Yazdiy;</li> <li>Hofizi Abru;</li> <li>Lutfiy;</li> <li>Ali Qushchi;</li> <li>Xoja Ahror;</li> <li>Abdurazzoq Samarqandiy;</li> <li>Abdurahmon Jomiy;</li> <li>Mirxon;</li> <li>Davlatshoh Samarqandiy;</li> <li>Alisher Navoiy;</li> <li>Kamoliddin Behzod;</li> <li>Xondamir;</li> <li>Zahiriddin Muhammad Bobur.</li> </ul>	2023-yil aprel	
			2023-yil aprel	

2.	Toshkent tarixi muzeyi	<b>Qadimgi Toshkent (Toshkent vohasi moddiy madaniyati)</b> <b>Toshkent Birinchi va Ikkinch Renessans davrlarida</b> Qaffol Shoshiy; Zangiota; Shayx Zayniddin bobo; Shayx Xovandi Tohur Hofiz Ko‘hakiy; Shoshiy taxallusi bilan mashhur allomalar.	2023-yil aprel	Fanlar akademiyasi, Toshkent shahar hokimligi, Madaniy meros agentligi, Badiiy akademiya
3.	O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi	<b>Sharq allomalarining aniq va tabiiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasi</b> Muhammad al-Xorazmiy; Ahm♦♦d Farg‘oniy; Abu Rayhon Beruniy; Ibn Sino; Mahmud Chag‘miniy; Mirzo Ulug‘bek; Ali Qushchi va boshqalar.	2022-yil noyabr	Toshkent shahar hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
4.	O‘zbekiston davlat san’at muzeyi	<b>Birinchi va Ikkinch Renessans davrlari san’ati</b> Birinchi Renessans davri me’morchilik san’ati; Ikkinci Renessans davri me’morchilik san’ati; Mirak Naqqosh; Kamoliddin Behzod; Mahmud Muzahhib; Sulton Ali Mashhadiy; Xattotlik san’ati tarixi.	2023-yil mart	Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya, Toshkent shahar hokimligi
5.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi	<b>Qadimgi sivilizatsiya izlari</b> Qadimgi madaniyat; Ayozqal’a; Katta Guldursunqal’a; Qirqqizqal’a; Tuproqqaqal’a; Chilpiqqal’a; Gaurqal’a.	2023-yil aprel	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
6.	Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	<b>Boburiylar yurti</b> Mingtepa; Andijon; Zahiriddin Muhammad Bobur; Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni.	2023-yil aprel	Andijon viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
7.	“Buxoro” davlat muzey-qo‘riqxonasi	<b>Islom yuksalgan yurt</b> Boykent; Varaxsha; Alp Er To‘nga; Hofiz Kabir Buxoriy; Imom al-Buxoriy;	2023-yil noyabr	Buxoro viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya

		Bahouddin Naqshband; Ibn Sino; O‘zbek davlati somoniylar, qoraxoniylar, shayboniylar, ashtarxoniyalar, mang‘itlar davlarida; Jadidlar.		
8.	Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	<b>Yurt darvozasi</b> Toshqo‘rg‘on; Qaliyatepa; Ustrushona; Temir darvoza; 1916 yilgi Jizzax qo‘zg‘oloni.	2023-yil aprel	Jizzax viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
9.	Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	<b>Nasafiyilar yurti</b> Yerqo‘rg‘on; Uzunqir; Sangirtepa; Nasaf; Nasafiyalar.	2023-yil may	Qashqadaryo viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
10.	“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi	<b>Sohibqiron tug‘ilgan yurt</b> Amir Temur; Oqsaroy, Dor us-siyodat, Dor uttilovat, Ko‘k gumbaz va boshqalar; Hunarmandchilik; Xisrav Dehlaviy; Bedil; Mirzo G‘olib.	2023-yil iyun	Qashqadaryo viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
11.	Navoiy viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	<b>Toshlarga muhrlangan tarix</b> Qoyatosh suratlarida aks etgan ibridoiy odamlar hayoti, ovchilik manzaralari, jang manzaralari.	2024-yil aprel	Navoiy viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
12.	“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi	<b>Yer yuzining sayqali</b> Afrosiyob; Amir Temur poytaxti; Mirzo Ulug‘bek; Qozizoda Rumiy; G‘iyosiddin al-Koshiy; Ali Qushchi.	2023-yil avgust	Samarqand viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
13.	“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi	<b>Hadis ilmi darg‘alari</b> Iso Termiziy; Hakim Termiziy va boshqa hadisshunoslar.	2023-yil sentyabr	Surxondaryo viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
14.	Termiz arxeologiya muzeyi	<b>Ilk davlatchilik kurtaklari</b> Ilk shahar-davlatlar: Sopollitepa; Jarqo‘ton; Kushoniylar; Termiziylar.	2023-yil oktyabr	Surxondaryo viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya

15.	Sirdaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	<b>Ustrushona</b> Ustrushona tarixi, savdo yo'llari, karvon yo'llari, tashqi aloqalari.	2023-yil noyabr	Sirdaryo viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
16.	Toshkent viloyati Chirchiq shahar tarixi muzeyi	<b>Tarixiy manzilgohlar</b> Obirahmat; Xo'jakent qoyatosh suratlari; Turk hoqonligi; Kavardon.	2024-yil avgust	Toshkent viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
17.	Farg'ona viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	<b>Sharq darvozasi</b> Ko'hna Farg'ona; O'zbek davlati qoraxoniylar davrida; Ahmad Farg'oniy; Mahmud Qoshg'ariy; Yusuf Xos Hojib; Birinchi Renessans davri.	2024-yil sentyabr	Farg'ona viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
18.	"Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi	<b>Qo'qon adabiy muhiti</b> Qo'qon qog'ozchiligi; Mashrab; Gulxaniy; Nodirabegim; Uvaysiy; Muqimiyy; Furqat.	2024-yil sentyabr	Farg'ona viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
19.	"Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi	<b>Ko'hna Xorazm</b> O'zbek davlatchiligi tarixida xorazmshohlar; Xorazm taqvimi; Ma'mun akademiyasi; xorazmlik olimlar, adiblar, so'fiylar.	2024-yil sentyabr	Xorazm viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
20.	Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	<b>Mashrab yurti</b> Axsikent; Qadimgi Pop; Mug'tepa; Qirqxujra; Mashrab.	2024-yil may	Namangan viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya
21.	Olimpiya va paralimpiya shon-shuhrat muzeyi	2024-yil Parij shahrida o'tkaziladigan navbatdagi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari g'olib va sovrindorlariga bag'ishlangan ekspozitsiya.	2024-yil dekabr	Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi, Milliy paralimpiya qo'mitasi, Toshkent shahar hokimligi
22.	Qurolli Kuchlar tarixi davlat muzeyi	<b>Turon harbiy san'ati</b> Harbiy san'at va usul; Harbiy qurol-aslahalar; Mudofaa tizimi (inshootlar); Buyuk qo'shinboshilar.	2024-yil oktyabr	Mudofaa vazirligi, Toshkent shahar hokimligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya

Izoh.

Ushbu rejada belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar mahalliy budjet, Madaniy meros jamg‘armasi, muzeylar sohasiga Davlat budgetidan ajratilgan mablag‘lar, metsenatlik ko‘magi, homiylik xayriyalari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

Ekspozitsiyalar olimlar va mutaxassislar ishtirokidagi ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — turizm va madaniy meros vaziri tomonidan tasdiqlangan konsepsiya asosida tashkil qilinadi.

Ekspozitsiya nomi va unda alohida e’tibor beriladigan jihatlar, shu jumladan o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinci Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatining yoritilishi tasdiqlangan konsepsiaga asosan o‘zgarishi mumkin.

Tashkil etiladigan ekspozitsiyalar uchun belgilangan tartibda boshqa muzey va idoralardan muzey ashyolari va kolleksiyalari olinishi mumkin.

Tegishli muzeylar ushbu rejada belgilangan ekspozitsiya mavzulari doirasida doimiy ravishda ilmiy tadqiqot ishlari olib boradi va tarixiy manbalarini to‘plab boradi.

(2-ilo va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son qaroriga  
3-ILOVA

## 2022 — 2024-yillarda davlat muzeylarida ixtisoslashtirilgan restavratsiya laboratoriylarini tashkil qilishning

### MANZILLI REJASI

T/r	Restavratsiya laboratoriysi tashkil etiladigan muzey nomi	Ixtisosligi	Amalga oshirish muddati
1.	O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi	Arxeologiya va etnografiya ashyolari	2022-yil
2.	O‘zbekiston davlat san’at muzeyi	Tasviriy san’at	
3.	I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyi	Tasviriy san’at	
4.	O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi	Etnografiya va amaliy san’at	2023-yil
5.	“Buxoro” davlat muzey-qo‘riqxonasi	Xalq amaliy san’ati	
6.	“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi	Me’morchilikka oid ashyolar	
7.	“Ichon qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi	Yog‘och va metall buyumlar	
8.	“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi	Me’morchilikka oid ashyolar	
9.	Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	Tasviriy san’at	2024-yil
10.	Termiz arxeologiya muzeyi	Arxeologiya ashyolari	
11.	Farg‘ona viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	Xalq amaliy san’ati	
12.	Navoiy viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	Qoyatosh suratlari	
13.	O‘zbekiston kino san’ati tarixi muzeyi	Kino, foto va fono ashyolar	
14.	Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	Arxeologiya va etnografiya ashyolari	

Izoh.

Ushbu rejada belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar har yili muzeylar sohasiga ajratiladigan Davlat budgeti mablag‘lari, metsenatlik ko‘magi, homiylik xayriyalari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — turizm va madaniy meros vaziri tomonidan mazkur rejada ko‘rsatilgan restavratsiya laboratoriyaning ixtisosligi va ularni tashkil etish muddatlariga o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son qaroriga  
4-ILOVA

**Noyob muzey ashyolari va kolleksiyalarining replikatsiyalarini tayyorlash hamda ularni  
realizatsiya qilish bo‘yicha 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan**

**MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

*Oldingi tahririga qarang.*

T/r	Muzey nomi	Replikatsiyalarini tayyorlanadigan asarlar soni, ta						Mas’ullar	
		Jami	Shundan yillar bo‘yicha						
			2022- yil	2023- yil	2024- yil	2025- yil	2026- yil		
1.	O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi	210	20	40	50	50	50	Fanlar akademiyasi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Toshkent shahar hokimligi	
2.	O‘zbekiston davlat san’at muzeyi	210	20	40	50	50	50	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Toshkent shahar hokimligi	
3.	O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi	140	20	30	30	30	30	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Toshkent shahar hokimligi	
4.	O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasi	65	10	10	15	15	15	“Milliy bank” AJ, O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasi, Madaniy meros agentligi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti	
5.	Olimpiya va paralimpiya shon-shuhrat muzeyi	50	10	10	10	10	10	Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Milliy olimpiya qo‘mitasi, Milliy paralimpiya qo‘mitasi “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya	
6.	San’atshunoslik instituti	150	10	30	30	40	40	Fanlar akademiyasi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Toshkent shahri hokimligi	
7.	I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyi	160	20	30	30	40	40	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi	

8.	Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	85	10	15	20	20	20	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Andijon viloyati hokimligi
9.	“Buxoro” davlat muzey-qo‘riqxonasi	150	20	30	30	30	40	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Buxoro viloyati hokimligi
10.	Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	25	5	5	5	5	5	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Jizzax viloyati hokimligi
11.	“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi	50	10	10	10	10	10	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Qashqadaryo viloyati hokimligi
12.	Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	60	10	20	20	20	30	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Namangan viloyati hokimligi
13.	“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi	150	20	30	30	30	40	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Samarqand viloyati hokimligi
14.	“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi	50	10	10	10	10	10	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Surxondaryo viloyati hokimligi
15.	Termiz arxeologiya muzeyi	100	10	10	20	30	30	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Surxondaryo viloyati hokimligi
16.	Farg‘ona viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi	100	10	10	20	30	30	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Farg‘ona viloyati hokimligi
17.	“Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasi	140	15	20	30	35	40	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Farg‘ona viloyati hokimligi

18.	“Ichan qal’ा” davlat muzey-qo‘riqxonasi	150	20	20	30	40	40	Madaniy meros agentligi, “Hunarmand” uyushmasi, Badiiy akademiya, San’atshunoslik instituti, Xorazm viloyati hokimligi
-----	---	-----	----	----	----	----	----	--

Izoh: replikatsiyalar ijrochilar, tashabbuskorlar, muzeylarning budjetdan tashqari mablag‘lari, qonunchilik hujjalari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan tayyorlanadi.

(4-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son qaroriga  
5-ILOVA

### Muzeylar sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish

#### REJASI\*

T/r	Davlat muzeylari nomi	Hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish tavsiya etilayotgan xorijiy muzeylar va xalqaro tashkilotlar nomi
1.	Madaniy meros agentligi; O‘zbekiston muzeylar kengashi; Respublika ahamiyatidagi davlat muzeylari.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Mustaqil muzeylar assotsiatsiyasi (Buyuk Britaniya)</li> <li>Amerika muzeylari ittifoqi (AQSh)</li> <li>Britaniya muzey do‘satlari assotsiatsiyasi (Buyuk Britaniya)</li> <li>Irlandiya muzeylar assotsiatsiyasi (Irlandiya)</li> <li>Muzeylar kompyuter tarmog‘i (AQSh)</li> <li>Muzeylar kompyuter guruhi (Museums Computer Group) (Buyuk Britaniya)</li> <li>To‘pqop saroyi muzey kutubxonasi (Turkiya)</li> <li>Konservatsiyalash instituti (Italiya)</li> </ol>
2.	O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Koreya milliy etnografiya muzeyi</li> <li>Nara milliy muzeyi (Yaponiya)</li> <li>Xitoy milliy muzeyi</li> <li>Shanxay viloyati arxeologiya muzeyi (Xitoy)</li> <li>To‘pqop saroyi muzey kutubxonasi (Turkiya)</li> <li>Islom san’ati muzeyi (Turkiya)</li> </ol>
3.	O‘zbekiston davlat san’at muzeyi.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Moskvadagi Tretyakov galereyasi</li> <li>Qozog‘iston davlat milliy muzeyi</li> <li>To‘pqop saroyi muzey kutubxonasi (Turkiya)</li> </ol>
4.	O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Dunyo xalqlari an’anaviy san’ati muzeyi (Rossiya)</li> <li>Turk va islam san’ati muzeyi (Turkiya)</li> <li>Turkman gilamlari milliy muzeyi</li> <li>A.L. Shtiglits nomidagi Sankt-Peterburg davlat badiiy-sanoat akademiyasining amaliy san’at muzeyi (Rossiya)</li> </ol>
5.	O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Tabiiy tarix muzeyi (Buyuk Britaniya)</li> <li>Amerika tabiiy tarix muzeyi (AQSh)</li> <li>Tabiat muzeyi (Qozog‘iston)</li> </ol>
6.	Olimpiya va paralimpiya shon-shuhrat muzeyi.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Davlat sport muzeyi (Rossiya)</li> <li>Olimpiya muzeyi (Shveysariya)</li> <li>Afina olimpiya muzeyi (Gretsiya)</li> <li>Galatasaroy sport muzeyi (Turkiya)</li> <li>Yaponiya olimpiya muzeyi</li> <li>Gruziya sport tarixi muzeyi</li> </ol>

		7. Amerika sport muzeyi (AQSh)
7.	Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi.	Nizomiy Ganjaviy nomidagi Ozarbayjon adabiyoti milliy muzeyi
8.	Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyi.	Malik milliy muzeyi (Eron)
9.	Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi.	1. Qozog'iston davlat milliy muzeyi 2. Qozog'iston davlat markaziy muzeyi
10.	I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi.	1. Rossiya davlat muzeyi 2. Milliy portret galereyasi (Buyuk Britaniya) 3. Milliy san'at markazi (Yaponiya) 4. G. Atyiyev nomidagi Qirg'iziston tasviriy san'at milliy muzeyi
11.	Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi.	Qirg'iziston tarixi davlat muzeyi
12.	"Buxoro" davlat muzey-qo'riqxonasi.	1. Saritsino muzey-qo'riqxonasi (Rossiya) 2. Gatchina muzey-qo'riqxonasi (Rossiya) 3. Yevropa va O'rta yer dengizi sivilizatsiyalari muzeyi (Fransiya)
13.	Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi.	"Sulaymon-Too" tarixiy-arxeologik kompleksi (Qirg'iziston)
14.	"Shahrisabz" davlat muzey-qo'riqxonasi.	1. "Sulaymon-Too" tarixiy-arxeologik kompleksi (Qirg'iziston) 2. "Ejulgi Taraz eskert-kishteri" tarixiy-madaniy muzey-qo'riqxonasi (Qozog'iston)
15.	Namangan viloyati tarixi va madaniyati muzeyi.	1. To'pqopi saroyi muzey kutubxonasi (Turkiya) 2. Koreya Milliy muzeyi
16.	"Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi.	1. Gatchina muzey-qo'riqxonasi (Rossiya) 2. Saritsino muzey-qo'riqxonasi (Rossiya)
17.	"Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasi.	1. To'pqopi saroyi muzey kutubxonasi (Turkiya) 2. Saritsino muzey-qo'riqxonasi (Rossiya) 3. Kolomenskiy muzey-qo'riqxonasi (Rossiya)
18.	Termiz arxeologiya muzeyi.	1. Shanxay viloyati arxeologiya muzeyi (Xitoy) 2. Istanbul arxeologiya muzeyi (Turkiya)
19.	Toshkent viloyati Chirchiq shahar tarixi muzeyi.	1. To'pqopi saroyi muzey kutubxonasi (Turkiya) 2. Qozog'iston davlat milliy muzeyi 3. Shanxay viloyati arxeologiya muzeyi (Xitoy)
20.	"Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi.	1. Shotlandiya milliy muzeyi (Shotlandiya) 2. Issiq-ko'l davlat tarix-madaniyat muzey-qo'riqxonasi (Qirg'iziston)
21.	"Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi.	1. To'pqopi saroyi muzey kutubxonasi (Turkiya) 2. Geydar Aliyev madaniyat markazi (Ozarbayjon) 3. Turkmaniston davlat muzeyi

Izoh:

Davlat muzeylari ushbu rejada belgilangan xorijiy muzeylar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni Madaniy meros agentligi, tegishli davlat muzeyining yuqori turuvchi organi hamda Tashqi ishlari vazirligi bilan kelishgan holda amalga oshiradi.

Madaniy meros agentligi Tashqi ishlari vazirligi bilan birgalikda davlat muzeylariga tegishli xorijiy muzeylar va xalqaro tashkilotlar bilan tajriba almashish, xodimlar malakasini oshirish, muzey ashyolarini restavratsiya va konservatsiya qilish, ko'rgazmalar tashkil etish kabi hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish hamda hamkorlik kelishuvlarini amalga oshirishda amaliy yordam ko'rsatadi.

Madaniy meros agentligi va davlat muzeylarining xorijiy muzeylar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish bilan bog'liq xarajatlari Madaniy meros jamg'armasi, davlat muzeylarining budgetdan tashqari

mablag‘lari, metsenatlik ko‘magi, homiylik xayriyalari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Ushbu rejada keltirilmagan boshqa muzeylar ham Madaniy meros agentligi va Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishgan holda belgilangan tartibda muzeylar sohasida xalqaro hamkorlik, shu jumladan xorijiy muzeylar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishi mumkin.

\*O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinnbosari — turizm va madaniy meros vaziri tomonidan, zarurat bo‘lganda, mazkur rejaga Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishgan holda o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son qaroriga  
6-ILOVA

## **2022-2023-yillarda muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar**

### **DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbai	Mas’ullar
<b>I. Muzeylarda xizmatlar sifatini oshirish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash</b>					
1.	Muzeylarda ilg‘or xorijiy namunalar asosida <b>marketing va xizmatlar sohasini rivojlantirish</b> maqsadida ushbu yo‘nalishda katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan <b>konsalting xizmati kompaniyalarini jalb qilish.</b>	1. Muzeylarda marketing va xizmatlar sohasi bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish.  2. Konsalting xizmati kompaniyalarini shartnoma asosida jalb qilish.  3. Konsalting xizmati kompaniyalari tomonidan tegishli har bir muzey uchun marketing va xizmatlar sohasini tashkil qilish hamda rivojlantirish konsepsiysi va rejasini ishlab chiqish.	2022-yil iyul  2022-yil avgust  2022-yil oktyabr	Madaniy meros jamg‘armasi mablag‘lari	Madaniy meros agentligi
		4. Ushbu konsepsiya va rejalar asosida muzeylarda marketing va yangi xizmatlarni joriy etish.	Reja asosida		
		5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-	Reja asosida	Mahalliy budgetning qo‘sishimcha manbalari, Madaniy meros	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari,

		son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan 2022-2023-yillarda davlat muzeylarida tashkil etiladigan qo'shimcha xizmatlarning manzilli rejasida belgilangan xizmatlarni tashkil etishni moliyalashtirish.		jamg'armasi mablag'lari	Madaniy meros agentligi
2.	Muzeylarda rassomlar, artistlar va milliy folklor jamoalari, hunarmandlar, bolalar uchun mo'ljallangan maxsus hududlar tashkil etish va ularni keng jalb qilish, ushbu yo'nalihsda turli savdo ko'rgazmalari, festivallar tashkil etib borish.	1. Muzeylarda turli yo'nalihslarda savdo ko'rgazmalari, festivallarni muntazam tashkil etish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish. 2. Tashkil etiladigan tadbirlarga erkin rassomlar, artistlar va milliy folklor jamoalari, hunarmandlarni keng jalb qilish.	2022-yil iyulidan reja asosida	Muzeylarning budjetdan tashqari mablag'lari va ijrochilar mablag'lari	Madaniy meros agentligi, Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Badiiy akademiya (Nuridinov), Savdo-sanoat palatasi (Vahabov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
3.	Davlat muzeylari va madaniy meros obyektlarida pulli xizmatlar sohasini kengaytirish maqsadida qo'shimcha marketing va xizmat turlarini tashkil etish.	1. Davlat muzeylari va madaniy meros obyektlarida pulli xizmatlar ko'rsatish turlari va tartibini tasdiqlash.	2022-yil iyul		Madaniy meros agentligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar
		2. Davlat muzeylari va madaniy meros obyektlarida qo'shimcha marketing va xizmat turlarini tashkil etish.	Reja asosida		
4.	2023 — 2026-yillarda muzeylar sohasini tubdan takomillashtirish va yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha chora-	Quyidagilarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqish hamda	2022-yil noyabr		Madaniy meros agentligi, Muzeylar faoliyatini takomillashtirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika ishchi guruhi

	<p>tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>belgilangan tartibda kiritish:</p> <p><b>muzey</b>  <b>xodimlarining ish haqini oshirish,</b>          ularni moddiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish,          muzeylarni va ularning xodimlari faoliyatini baholash mezonlari hamda <b>milliy reyting tizimini joriy etish;</b></p> <p><b>davlat muzeylari</b>  <b>binolarini qurish,</b>  <b>rekonstruksiya</b>  <b>qilish,</b> ta'mirlash, ularning <b>moddiy-texnika</b> bazasini mustahkamlash, <b>zamonaviy texnologiyalar</b> bilan jihozlash hamda ekspozitsiya va fond sharoitlarini tubdan yaxshilash;</p> <p>Toshkent shahridagi tegishli <b>muzeylarda</b> <b>yaratilgan</b> <b>namunaviy ekspozitsiyalar</b> asosida boshqa davlat muzeylarining zamonaviy yangi ekspozitsiyalarini yaratish;</p> <p>yangi muzeylar, xususan, nodavlat muzeylarni tashkil qilish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, <b>“San’atsevar</b></p>		
--	--	--	--

		<b>millat” loyihasini amalga oshirish,</b> uning doirasida san’at galereyalarini tashkil etish, <b>muzeylarning ko‘chma ko‘rgazmalarini tashkil qilish;</b> har yili davlat muzeylari va ilmiytadqiqot institutlariga arxeologik va etnografik tadqiqotlar uchun davlat buyurtmasi tizimini joriy qilish.			
5.	<b>Muzeylarda sovg‘alar (suvenir) do‘koni, hunarmandlar ustaxonasi va savdo shoxobchalarini tashkil etish hamda ularda muzey ashyolari va kolleksiyalari nusxalari — suvenir mahsulotlari savdosini yo‘lga qo‘yish.</b>	1. Muzeylarda sovg‘alar (suvenir) do‘koni, hunarmandlar ustaxonasi va savdo shoxobchalari tashkil etish rejasini ishlab chiqish.	2022-yil avgust	Muzeylarning budgetdan tashqari mablag‘lari va ijrochilar mablag‘lari	Madaniy meros agentligi, Savdosanoat palatasi ( <i>Vahabov</i> ), “Hunarmand” uyushmasi ( <i>Abdullahayev</i> ), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar
		2. Muzey ashyolari va kolleksiyalari nusxalari — suvenir mahsulotlari savdosini yo‘lga qo‘yish.	2022-yildan reja asosida		
6.	<b>Davlat muzeylarining davlat budgetidan moliyalashtirgan holda Milliy gvardiya xodimlari tomonidan qo‘riqlanishini ta’minlash.</b>	1. Qo‘riqlanadigan davlat muzeylari ro‘yxatini tasdiqlash.	2022-yil avgust	Respublika va mahalliy budget mablag‘lari	Madaniy meros agentligi, Moliya vazirligi ( <i>Ishmetov</i> ), Milliy gvardiya ( <i>Djurayev</i> )
		2. Tasdiqlangan ro‘yxatga asosan obyektlarda Milliy gvardiya xodimlari tomonidan qo‘riqlashni tashkil etish.	2023-yil yanvardan doimiy		
7.	<b>15 ta yirik davlat muzeyida tegishli yo‘nalishlarga ixtisoslashtirilgan</b>	1. Restavratsiya laboratoriylar uchun zarur bo‘lgan	2022-yil sentyabr	Muzeylar sohasiga ajratilgan Davlat budgeti	Madaniy meros agentligi, Moliya vazirligi ( <i>Ishmetov</i> ),

	<b>restavratsiya laboratoriyalarini tashkil etish.</b>	zamonaviy jihoz va uskunalar, xomashyo materiallari ro‘yxatini shakllantirish.		mablag‘lari, muzeylarning budjetdan tashqari, xalqaro grant mablag‘lari	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ( <i>Qudratov</i> ), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
		2. Taqdim etilgan zarur jihoz va uskunalar, xomashyo materiallarini ro‘yxatga muvofiq xarid qilish. 3. Restavratsiya laboratoriyalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	Reja asosida		
8.	<b>O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov uy-muzeyini tashkil etish.</b>	1. Abdulla Oripov oila-a’zolari, mutaxassislardan iborat ishchi guruh tuzish.	2022-yil iyun	Davlat budgeti mablag‘lari	Yozuvchilar uyushmasi ( <i>Saidov</i> ), Toshkent shahar hokimligi ( <i>Artikxodjayev</i> ), Qashqadaryo viloyati hokimligi ( <i>Azimov</i> ), Madaniy meros agentligi, Tashqi ishlar vazirligi ( <i>Norov</i> )
		2. Muzey konsepsiyasini ishlab chiqish, ekspozitsiyada namoyish etish uchun ashyolarni to‘plash.	2022-yil iyul		
		3. Muzey tashkil etiladigan bino bo‘yicha takliflar tayyorlash.	2022-yil avgust		
		4. Muzey faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2022-yil sentyabr		
9.	Muzeylar va ularning hududlarida bosqichma-bosqich “Muzey-restoran” yoki “Muzey-kafe”lar tashkil etish.	1. Xalqaro tajribani o‘rganish. Bunda ilg‘or xorijiy muzeylarda tashkil etilgan “Muzey-restoran” va “Muzey-kafe”larni o‘rganish, ularni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha	2022-yil noyabrdan reja asosida	Muzeylarning budjetdan tashqari va ijrochilar mablag‘lari	Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi ( <i>Abduhalimov</i> ), Savdo-sanoat palatasi ( <i>Vahabov</i> ), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va

		takliflar tayyorlash va tashkil etish.			Toshkent shahar hokimliklari
		2. Muzeylarda “Muzey-restoran” yoki “Muzey-kafe”lar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	2023-yildan doimiy		
10.	Muzeylarning <b>onlayn do‘konlarini bosqichma-bosqich tashkil etish.</b>	<p>1. Xalqaro tajribani o‘rganish. Bunda ilg‘or xorijiy muzeylarning onlayn do‘konlarini o‘rganish, ularni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha takliflar tayyorlash va tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish.</p> <p>2. Respublika muzeylarining onlayn do‘konlari tizimini tashkil qilish, zarur hollarda davlat-xususiy sheriklik asosida yo‘lga qo‘yish.</p>	2022-yil noyabr	Muzeylarning budjetdan tashqari va ijrochilar mablag‘lari	<p>Madaniy meros agentligi, Savdosanoat palatasi (<i>Vahabov</i>), “Hunarmand” uyushmasi (<i>Abdullahayev</i>), Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi (<i>Bozorov</i>), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
11.	<b>“Muzey vagon” nomli ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil qilish.</b>	<p>1. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan: ko‘chma ko‘rgazmalarни amalga oshirish uchun maxsus vagon ajratish; Madaniy meros agentligi bilan birqalikda maxsus vagonni zarur jihozlar va inventarlar bilan jihozlash.</p> <p>2. Madaniy meros agentligi tomonidan: maxsus vagonda tashkil qilinadigan muzeyning</p>	2023-yil may	Ijrochilar mablag‘lari	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ( <i>Xasilov</i> ), Madaniy meros agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

		konsepsiyasini ishlab chiqish; ekspozitsiyada namoyish etish uchun ashyolarni saralash va ekspozitsiyani tashkil qilish; ko‘chma ko‘rgazmalar kalendar rejasini tasdiqlash va tashkil qilish.			
--	--	---	--	--	--

## **II. Muzeylar sohasini targ‘ib qilish va ommalashtirish**

12.	Davlat muzeylarida <b>davlatchilik tarixi</b> hamda <b>buyuk allomalarining hayoti va faoliyati bo‘yicha yangi ekspozitsiyalar tashkil etish.</b>	1. Yangi ekspozitsiyalarni yaratish bo‘yicha olimlar va mutaxassislar ishtirokida ishchi guruhalr tuzish.	2022-yil iyul	Mahalliy budget, Madaniy meros jamg‘armasi, muzeylar sohasiga Davlat budgetidan ajratilgan mablag‘lar	Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi (Abduhalimov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
		2. Ekspozitsiya konsepsiyasini ishlab chiqish va Bosh vazir o‘rinbosari — turizm va madaniy meros vaziri tomonidan tasdiqlash.	Reja asosida		
		3. Tasdiqlangan konsepsiya asosida ekspozitsiyalarni yaratish.			
13.	Mamlakatimizdagи korxona va tashkilotlar xodimlari va ularning oila ♦ zolarini, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi hamda talabalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillari, nogironligi bo‘lgan shaxslar va keksalarning muzeylar va tarixiy manzilgohlarga tashrifini tutuvchi “Moziyga	1. “Moziyga sayohat” dasturi doirasida tashriflarni tashkil qilish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2022-yil uchun 1-iyul, 2023 va kelgusi yillar uchun har yili dekabr oyiga qadar	Ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlarning budgetdan tashqari mablag‘lari, mahalliy budgetning qo‘sishimcha manbalari, tashrif buyuruvchilar mablag‘lari	Turizm va madaniy meros vazirligi (Shaxriyorov), Xalq ta’limi vazirligi (Saidov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (Toshkulov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari,

	<b>sayohat” dasturini tashkil etish.</b>	2. Tasdiqlangan maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosini ta’minlab borish.			manfaatdor vazirlik va idoralar
14.	<b>Muzeylarning noyob ashyolari va kolleksiyalari kataloglarini tayyorlash, nashr qilish hamda kitob do‘konlarida ularning sotuvini yo‘lga qo‘yish.</b>	1. Yilda kamida bir donadan har bir muzeyning noyob ashyolari va kolleksiyalari kataloglarini yaratish. 2. Kataloglarni nashr qilish va kitob do‘konlarida ularning sotuvini yo‘lga qo‘yish.	2022-yildan doimiy	Ijrochilar mablag‘lari	Madaniy meros agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
15.	<b>Mamlakatdagi muzeylar faoliyati va muzey ashyolari tarixiga bag‘ishlangan ko‘rsatuvalar va reklama roliklarini tayyorlash, shuningdek, ularning respublika telekanallarida namoyishini ta’minlash.</b>	1. Mamlakatdagi muzeylar faoliyati va muzey ashyolari tarixiga bag‘ishlangan ko‘rsatuvalar va reklama roliklarini tayyorlash bo‘yicha media reja ishlab chiqish va amalga oshirish. 2. Reja asosida respublikadagi barcha telekanallarda beg‘araz namoyishlarni tashkil etish.	2022-yil iyuldan, media reja bo‘yicha	Ijrochilar mablag‘lari	Milliy teleradiokompaniya ( <i>Xadjayev</i> ), Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi ( <i>Abduhalimov</i> ), O‘zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi ( <i>Qudratxo‘ja</i> )
16.	<b>O‘zining xayriya mablag‘lari, metsenatlilik ko‘magi va muzeylar uchun boshqa manfaatlari xizmatlari bilan amaliy yordam ko‘rsatib kelayotgan jismoniy va yuridik shaxslarni <b>rag‘batlantirib borish tizimini joriy qilish</b> hamda ular ishtirokida aksiya tadbirlari</b>	1. “Muzey do‘stlari” maqomiga ega bo‘lish va unga ega bo‘lgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash ( <i>tavsiya xarakterida</i> ). 2. Muzeylarda “Muzey do‘stlari” to‘g‘risidagi	2022-yil sentyabr 2022-yil yakuniga qadar	Ijrochilar mablag‘lari	Madaniy meros agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar

	o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish.	ma’lumotlar burchagini tashkil qilish.  3. “Muzey do‘satlari” respublika va mahalliy darajadagi aksiya tadbirlarini o‘tkazish.	2023-yildan har yili 18-mayda		
17.	Muzeylar hamda madaniy meros obyektlarida tariximiz va madaniyatimiz to‘g‘risida tarixiy sahna ko‘rinishlari teatrlashtirilgan namoyishlarni o‘tkazish.	1. Tarixiy sahna ko‘rinishlari va teatrlashtirilgan namoyishlarni tashkil etish va o‘tkazish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.  2. Namoyishlarni reja asosida tashkil etish.	2022-yil avgust  2022-yil sentyabrdan, reja bo‘yicha	Ijrochilar mablag‘lari	Madaniyat vazirligi ( <i>Nazarbekov</i> ), Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi ( <i>Abduhalimov</i> ), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
18.	Muzeylar va madaniy meros sohasini ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib qilish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish.	1. Madaniy meros agentligi va “O‘zbekiston tarixi” telekanali tomonidan sohani keng targ‘ib qilish bo‘yicha media reja ishlab chiqish va amalga oshirish.  2. “Milliy PR-markazi” DUK tomonidan har yili kamida 100 ta yuksak badiiy saviyadagi targ‘ibot materiallarini tayyorlash va keng namoyish qilish.	Har yil yarim yillikda  Har yili	Davlat budgeti va ijrochilar mablag‘lari	Turizm va madaniy meros vazirligi ( <i>Shaxriyorov</i> ), Madaniy meros agentligi, Milliy teleradiokompaniya ( <i>Xadjayev</i> ), O‘zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi ( <i>Qudratxo‘ja</i> )
19.	O‘quvchi va talabalarning muzeylar va galereyalarga tashrif buyurish reja-jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash.	1. Tashrif jadvalini ishlab chiqish hamda kelishgan holda tasdiqlash.  2. Reja-jadvalga asosan har bir ta’lim muassasasi kesimida muzeylar va galereyalarga tashriflarni tashkil etish.	Har yili sentyabr oyida joriy o‘quv yili uchun	Ijrochilar mablag‘lari	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>Toshkulov</i> ), Xalq ta’lim vazirligi ( <i>Saidov</i> ), Madaniy meros agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

20.	<p>Davlat muzeylarida o'tkaziladigan ko'rgazmalar va madaniy-ma'rifiy tadbirlarning har yili Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan <b>kalendar reja</b> asosida o'tkazilishini joriy etish.</p>	<p>1. Kalendar rejani ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Tasdiqlangan kalendar rejalarini rasmiy veb-saytlarga joylashtirish va turizm faoliyati subyektlariga yetkazib borish.</p> <p>3. Kalendar rejada belgilangan tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish.</p>	<p>Har yili yanvar</p> <p>Har yili yanvar</p> <p>Reja asosida</p>	<p>Ijrochilar mablag'lari</p>	<p>Turizm va madaniy meros vazirligi (<i>Shaxriyorov</i>), Madaniy meros agentligi</p>
21.	<p>Davlat muzeylarida zamonaviy <b>NFT (qo'zg'almas tokenlar)</b>, <b>golografiya</b> va <b>3D kabi texnologiyalarni keng qo'llash</b> orqali muzeylarning ommaviyligini oshirish va marketing rivojlantirish.</p>	<p>1. Tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda, eksperiment tarzida: O'zbekiston Davlat muzeylaridagi ashyolar va madaniy meros obyektlarining NFT formatini yaratish, ularni xalqaro auksionlarda sotuvga chiqarish maqsadida xavfsiz va yuqori tezlikka ega <b>Blokcheyn platformalarida</b> ommalashtirish va monetizatsiya qilinishini yo'lga qo'yish; O'zbekiston davlat tabiat muzeyida to'lqinlar interferensiyasini qo'lagan holda, buyumning fazoviy (hajmiy) tasvirini hosil qilish usulidan foydalanib, gologrammali shoulnarni yaratish.</p>	<p>2023-yil avgust</p>	<p>Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari</p>	<p>Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi (<i>Umerova</i>), Madaniy meros agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

		<p>2. NFT — san'at asarlarini yaratish, ommalashdirish va monetizatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash hamda kengaytirish, shuningdek, golografiya va 3D texnologiyalarini tegishli muzeylar va madaniy meros obyektlarida joriy qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.</p>	2023-yil noyabr		
--	--	--	-----------------	--	--

### **III. Muzeylar sohasiga oid qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish hamda muzeylarning ilmiy salohiyati va xodimlar malakasini oshirish**

22.	<p>Davlat muzeylari rahbar va xodimlarining <b>bilim va malakasini baholash.</b></p>	1. Idoralararo ishchi guruhi shakllantirish.	2022-yil iyun	<p>Turizm va madaniy meros vazirligi (<i>Abduxakimov</i>), Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi (<i>Abduhalimov</i>), manfaatdor vazirliklar va idoralar</p>
		2. Davlat muzeylari rahbar va xodimlarining bilim va malakasini baholash rejadvalini ishlab chiqish.	2022-yil iyul	
		3. Davlat muzeylari rahbar va xodimlarining bilim va malakasini baholash.	2022-yil iyul — oktyabr	
		4. Lavozimiga noloyiq bo‘lgan davlat muzeylari rahbar va xodimlari o‘rniga <b>bilimli, tajribali, mas’uliyati va tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega yuqori malakali, ayniqsa yosh mutaxassislarni</b> lavozimlarga tayinlash.	2022-yil noyabr	
23.		1. Madaniy meros kodeksi	2022-yil iyun	Madaniy meros agentligi, Turizm

	<p><b>Madaniy meros kodeksi</b> loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>Bunda, quyidagi qonunchilik hujjatlarining normalarini umumlashtirib,</p> <p><b>to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi, tizimlashgan yagona va yaxlit hujjat shakliga keltirish:</b></p> <p>“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun;</p> <p>“Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun;</p> <p>“Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi Qonun;</p> <p>“Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonun;</p> <p>Qurolli mojaro chiqqan hollarda madaniy boyliklarning himoya qilinishi to‘g‘risidagi konvensiya (1954-yil 14-may, Gaaga);</p> <p>Madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda olib kelish, olib ketish va ularga bo‘lgan egalik huquqini o‘zgaga berishni man etish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Konvensiya (1970-yil 17-noyabr, Parij);</p> <p>Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Konvensiya (1972-yil 23-noyabr, Parij);</p>	<p>loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruhi tuzish hamda uning tarkibini Bosh vazir o‘rinbosari — turizm va madaniy meros vaziri tomonidan tasdiqlash.</p> <p>2. YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar, xorijiy va mahalliy malakali mutaxassis va ekspertlarni shartnomaga asosida jalb etish.</p> <p>3. Xorijiy ilg‘or tajribalar va amaliyotdagi muammolarni atroflicha o‘rganish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-son Farmonining 15-band, 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-sodan qaroriga 4-ilovaning 6, 15 va 18-bandlaridagi vazifalarni uyg‘unlashtirish.</p> <p>4. Kodeks loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha grant va boshqa manbalardan mablag‘lar jalb etish.</p> <p>5. <b>Kodeks loyihasini ishlab chiqish.</b></p> <p>6. <b>Kodeks loyihasini</b></p>	<p>2022-yil iyul</p> <p>2022-yil iyul — oktyabr</p> <p>2022-yil iyul — oktyabr</p> <p>2022-yil oktyabr — 2023-yil yanvar</p> <p>2023-yil mart</p>	<p>Madaniy <b>eros</b> jamg‘armasi va grant mablag‘lari</p>	<p>va madaniy meros vazirligi (<i>Shaxriyorov</i>), Badiiy akademiya (<i>Nuridinov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Abduhalimov</i>), Adliya vazirligi (<i>Davletov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>Norov</i>), Bosh prokuratura (<i>Yo‘ldoshev</i>), YUNESKO ishlari bo‘yicha milliy komissiya, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
--	---	--	---	---	---

	Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi xalqaro Konvensiya (2003-yil 17-oktabr, Parij); sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlari hamda xalqaro shartnomalar.	manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda belgilangan tartibda <b>Vazirlar</b> <b>Mahkamasiga kiritish.</b>		
24.	Muzeylar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi yo‘nalishlarda <b>har yili grant loyihalari tanlovini tashkil qilish</b> va o‘tkazish: muzeylarda zamonaviy marketing va menejmentni yo‘lga qo‘yish; muzeylarning ilmiytadqiqot ishlarini kuchaytirish; muzeiy ashylari va kolleksiyalarini restavratsiya va konservatsiya qilish; sohaga zamonaviy texnologiyalarni, shu jumladan, <b>7D gologrammai shoulnarni faol tatbiq etish;</b> <b>muzeiy tarixi,</b> ashyolar va kolleksiyalarini targ‘ib qilish; muzeylarga oid <b>eng sara kitob, katalog</b> va boshqa nashrlarni chop etish.	1. Tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha grant ajratish va grant loyihalarini e’lon qilish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash.  2. Keyingi yil uchun grant loyihalarini e’lon qilish.  3. Grant g‘oliblarini aniqlash.  4. Grant loyihalarining samarali amalga oshirilishini ta’minlash va nazorat qilib borish.	2022-yil avgust  2022-yil oktyabr  2022-yil noyabr  2023-yildan har yili	Madaniy meros jamg‘armasi mablag‘lari  Madaniy meros agentligi
25.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 178-bandiga muvofiq yurtimizdagи <b>8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish</b>	1. Sohadagi mavjud muammo, kamchiliklardan kelib chiqib, madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.  2. Obyektlarni shaffof ijaraga	2022-yil noyabr	Madaniy meros agentligi, Turizm va madaniy meros vazirligi ( <i>Shaxriyorov</i> ), Badiiy akademiya ( <i>Nuridinov</i> ), Fanlar akademiyasi ( <i>Abduhalimov</i> ), Moliya vazirligi ( <i>Ishmetov</i> ), Qoraqalpog‘iston

<p>bo‘yicha davlat dasturi qabul qilish.</p> <p>Bunda:</p> <p>foydalanimayotgan, turistlar uchun ochiq bo‘lмаган va turistik xizmatlar</p> <p>ко‘rsatilmayotgan mos madaniy meros obyektlarini <b>muzeylar, ko‘rgazmalar, art-rezidensiyalar, boshqa madaniyat va turizm obyektlariga aylantirishni;</b></p> <p>ilmiy-tadqiqot guruhlarining takliflari asosida hududlar kesimida moddiy madaniy meros obyektlarida amalga oshiriladigan ko‘chmas mulkni <b>asrashga oid ishlarning manzilli rejasini tasdiqlash, shu jumladan, Xorazm viloyatida 100 ta, Buxoro viloyatida 800 ta,</b></p> <p>Farg‘она viloyatidagi 10 tadan ortiq va boshqa hududlardagi madaniy meros obyektlarini birma-bir restavratsiya qilish;</p> <p>археологиа obyektlarini muhofaza qilish, ilmiy tadqiq etish, konservatsiyalash, obodonlashtirish, 3D panjaralar o‘rnatish va uni rivojlantirishni, shu jumladan,</p> <p>Qoraqalpog‘iston Respublikasi vertikal nazorat tizimini o‘rnatish, mobil guruh faoliyatini yo‘lga qo‘yish,</p> <p>археологиа mutaxassislarini tayyorlashni nazarda tutish.</p>	<p>berish tizimini tashkil qilish.</p> <p>3. Sohadagi holat va o‘rganish natijalariga ko‘ra madaniy meros obyektlarini ishonchli muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqish.</p>			<p>Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
---	---	--	--	--

26.	<p>“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti hamda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutiga muzey ashyolari va kolleksiyalarini restavratsiya qilish yo‘nalishlari bo‘yicha xorijiy pedagoglarni shartnoma asosida jalb qilish.</p>	<p>1. Rossiya, Yevropa va AQSh kabi davlatlarning restavratsiya va konservatsiya qilish bo‘yicha yetuk pedagoglari ro‘yxatini shakllantirish.</p>	2022-yil sentyabr	Respublika budjeti va xalqaro grant mablag‘lari	Turizm va madaniy meros vazirligi ( <i>Shaxriyorov</i> ), Badiiy akademiya ( <i>Nuridinov</i> ), Moliya vazirligi ( <i>Ishmetov</i> ), Tashqi ishlar vazirligi ( <i>Norov</i> )
27.	<p>“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti hamda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida muzey ashyolari va kolleksiyalarini restavratsiya qilish yo‘nalishlari bo‘yicha restavratsiya ustaxonalarini tashkil etish.</p>	<p>1. Muzey ashyolari va kolleksiyalarining restavratsiya ustaxonalari uchun zarur jihoz va uskunalar, xomashyo materiallari ro‘yxatini shakllantirish.</p>	2022-yil oktyabr	Respublika budjeti va xalqaro grant mablag‘lari	Turizm va madaniy meros vazirligi ( <i>Shaxriyorov</i> ), Badiiy akademiya ( <i>Nuridinov</i> ), Moliya vazirligi ( <i>Ishmetov</i> ), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ( <i>Kudratov</i> )
		<p>2. Tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq jihoz, uskunalar va xomashyolarni xarid qilish ishlarini tashkil etish.</p>	2023-yil iyul		
		<p>3. Restavratsiya ustaxonalarini ishga tushirish.</p>	2023-yil sentyabr		
28.	<p>Qarshi davlat universiteti huzurida <b>Imom Nasafiy ilmiy-tadqiqot markazi</b> faoliyatini tashkil etish.</p>	<p>Quyidagilarni nazarda tutgan holda Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda kiritish: 2023 — 2025-yillarda Abu Muin Nasafiy va nasaflik allomalar ilmiy</p>	2022-yil noyabr		Qashqadaryo viloyati hokimligi ( <i>Azimov</i> ), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>Toshkulov</i> ), Din ishlari bo‘yicha qo‘mita ( <i>Toshboyev</i> ), Turizm va madaniy meros vazirligi ( <i>Shaxriyorov</i> )

		merosini o‘rganishni qo‘llab- quvvatlash bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash; Imom Nasafiy ilmiy-tadqiqot markazini joylashtirish, uning faoliyatini samarali tashkil etish, tuzilmasi, moliyalashtirish manbalarini aniq belgilash.		
29.	Buyuk ajdodlarimizning kitobat san’ati sohasidagi boy an’analarini qayta tiklash va rivojlantirish, yosh avlodning kitobat ilmiga, shu jumladan xattotlik, muqovasozlik, naqqoshlik, miniatyura san’atiga qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish maqsadida Toshkent shahrida <b>Kitobat ilmi maktabini</b> tashkil etish. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldaggi PF-6155-sон Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash” va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 174- bandida belgilangan vazifalar inobatga olinadi.	<p>1. <b>Toshkent shahar hokimligi tomonidan</b> Kitobat ilmi maktabiga mos bino ajratish yoki, zarur hollarda, yangi bino qurish masalasi bo‘yicha takliflar tayyorlash hamda <b>Vazirlar Mahkamasi bilan kelishish.</b></p> <p>2. Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan takliflarni inobatga olgan holda, <b>O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan</b> Kitobat ilmi maktabini joylashtirish, uning faoliyatini samarali tashkil etish, tuzilmasi va moliyalashtirish manbalarini aniq belgilash kabi boshqa chora- tadbirlarni nazarda tutuvchi asoslangan va kelishilgan takliflarni belgilangan tartibda</p>	2022-yil oktyabr 2022-yil noyabr	Toshkent shahar hokimligi (Artikxodjayev), O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi (Minovarov), Din ishlari bo‘yicha qo‘mita (Toshboyev), Qurilish vazirligi (Zakirov), Kadastr agentligi (Pulatov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (Boboyev), Moliya vazirligi (Ishmetov), Madaniy meros agentligi

		Vazirlar Mahkamasiga kiritish.			
30.	Muzeylarni <b>malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash.</b>	<p>1. Muzeylarning malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanganligi holatini tahlil qilish.</p> <p>2. Tahlil natijalariga asosan muzeylarning istiqboldagi talab-ehtiyojidan kelib chiqib tegishli oliv ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.</p>	2023-yil mart		Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ( <i>Norqulov</i> ), Madaniy meros agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
31.	<b>"Muzeishunoslik va arxeologiya tadqiqotlari: dolzarb muammolar va zamonaviy yechimlar" xalqaro forumi hamda unin? doirasida ilmiy-amaliy konferensiya, "Buyuk ipak yo'li" tadqiqotlari ko'p jildli katalogi taqdimoti,</b> ko'rik-tanlov, ko'rgazma-savdolar, teatrlashtirilgan konsert-tomosha dasturlarini o'tkazib borish.	<p>1. Tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etishga qaratilgan tegishli qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>2. Tadbirlarni belgilangan reja asosida yuqori saviyada o'tkazib borish.</p>	<p>2023-yil fevral</p> <p>2023-yildan har ikki yilda bir marta may oyida</p>	Davlat budgeti va ijrochilar mablag'lari	Madaniy meros agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
32.	Muzeishunos va arxeoglarning ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganishi va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishini tashkil etish maqsadida <b>har yili</b> muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan <b>kamida 10 nafar</b> xodimning <b>chet elda</b>	<p>1. Chet elda malaka oshiradigan muzey xodimlari ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Ularning yil davomida chet elda kamida bir hafta malaka oshirishini ta'minlash.</p>	<p>Har yili yanvar</p> <p>Har yili reja asosida</p>	Muzeylarga ajratiladigan Davlat budgeti mablag'lari, davlat muzeylarining budgetdan tashqari mablag'lari	Madaniy meros agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar

	<b>malaka oshirishi va tajriba almashishini yo‘lga qo‘yish.</b>			
--	---	--	--	--

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son qaroriga  
7-ILOVA

## **Muzeylar faoliyatini takomillashtirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika ishchi guruhi**

### TARKIBI

1. A. — Bosh vazirning o‘rinbosari — turizm va madaniy meros vaziri, *Respublika ishchi guruhi rahbari*  
Abduxakimov
2. *Lavozimi bo‘yicha* — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, *hududiy ishchi guruhlari rahbarlari\**
3. *Lavozimi bo‘yicha* — Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi direktori, *Respublika ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari*
4. Sh. Aminov — Bosh prokuror o‘rinbosari
5. O. Pekos — axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o‘rinbosari
6. A. Boboyev — iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining o‘rinbosari
7. J. Abruyev — moliya vazirining o‘rinbosari
8. B. Shaxriyorov — turizm va madaniy meros vazirining o‘rinbosari
9. G‘. Rejabov — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi mas’ul xodimi
10. A. Xadjayev — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi
11. A. Nuridinov — O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi
12. B. Abduhalimov — Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti
13. S. Aliyev — Bosh prokuratura boshqarma boshlig‘i
14. T. Qo‘ziyev — Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari
15. Sh. Pidayev — Fanlar akademiyasining San‘atshunoslik instituti direktori
16. R. Suleymanov — O‘zbekiston Milliy universiteti arxeologiya kafedrasи professori, arxeolog, tarix fanlari doktori, fan arbobi
17. J. Ismoilova — O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori
18. V. Fayziyeva — O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi direktori
19. Sh. Hasanov — Vazirlar Mahkamasining Madaniy merosni himoya qilish inspeksiyasi boshlig‘i, *Respublika ishchi guruhi kotibi*

Izoh:

Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda Ishchi guruh tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarini bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

\* Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari rahbarligida hududiy ishchi guruhlari tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son qaroriga  
8-ILOVA

## **2023 — 2026-yillarda muzeylashtiriladigan arxeologiya yodgorliklarining MANZILLI REJASI**

T/r	Arxeologiya yodgorliklari nomi	Manzili	Yakunlash muddati	Mas’ul ijrochilar
-----	--------------------------------	---------	-------------------	-------------------

1.	<b>Dalvarzintepa</b>	Surxondaryo viloyati, Sho‘rchi tumani	2023-yil oktyabr	Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Surxondaryo viloyati hokimligi
2.	<b>Mingtepa</b>	Andijon viloyati, Marhamat tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Andijon viloyati hokimligi
3.	<b>Chilonzor Oqtepasi</b>	Toshkent shahri, Chilonzor tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Toshkent shahar hokimligi
4.	<b>Sherozqal'a</b>	Samarqand viloyati, Bulung‘ur tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Samarqand viloyati hokimligi
5.	<b>Qo‘yqirilgan qal'a</b>	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, To‘rtko‘l tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
6.	<b>Nur qal’asi</b>	Navoiy viloyati, Nurota tumani	2024-yil oktyabr	Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Navoiy viloyati hokimligi
7.	<b>Qadimgi Pop (Munchoqtepa)</b>	Namangan viloyati, Pop tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Namangan viloyati hokimligi
8.	<b>Qaliyatepa</b>	Jizzax viloyati, Jizzax shahri		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Jizzax viloyati hokimligi
9.	<b>Qoratepa</b>	Surxondaryo viloyati, Termiz tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Surxondaryo viloyati hokimligi
10.	<b>Quva shahristoni</b>	Farg‘ona viloyati, Quva tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Farg‘ona viloyati hokimligi
11.	<b>Aqchaxan qal'a</b>	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Beruniy tumani	2025-yil sentyabr	Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
12.	<b>Poykent</b>	Buxoro viloyati, Qorako‘l tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Buxoro viloyati hokimligi
13.	<b>Yunusobod Oqtepasi</b>	Toshkent shahri, Yunusobod tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Toshkent shahar hokimligi
14.	<b>Qanqa</b>	Toshkent viloyati, Oqqo‘rg‘on tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Toshkent viloyati hokimligi
15.	<b>Afrosiyob</b>	Samarqand viloyati, Samarqand shahri		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Samarqand viloyati hokimligi
16.	<b>Tuproqqal'a</b>	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Ellikqal'a tumani	2026-yil sentyabr	Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
17.	<b>Yerqo‘rg‘on</b>	Qashqadaryo viloyati, Koson tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Qashqadaryo viloyati hokimligi
18.	<b>Qoratosh tepa (Xumbuz)</b>	Xorazm viloyati, Hazorasp tumani		Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Xorazm viloyati hokimligi

Izoh: ushbu rejada belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar har yili madaniy meros sohasiga ajratiladigan Davlat budjeti mablag‘lari, mahalliy budget mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.05.2022-y., 07/22/261/0456-son; 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)